

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TIBBIY PSIXOLOGIYA VA SHAXSLARARO MULOQOT FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot

1. Psixologiya fanining umumiy tushunchalari va o'rganish sohalari;
2. Ruhiy jarayonlar asoslari;
3. Bilish sohasi jarayonlari va shaxslararo muloqot asoslari;
4. Shaxs tushunchasi va shaxsni belgilovchi omillar: iroda, temperament, xarakter;
5. Tibbiyot sohasida shaxslararo muloqot: etika va deontologiya, samarali muloqot ko'nikmalari;
6. Bemorlar bilan samarali muloqot psixologiyasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
------------	------------------------	---------------------	-------------------	---------------------

1	Psixologiya fanining umumiy tushunchalari va o'rganish sohalari	Psixologiya psixologiya fani va uning tarmoqlari va ularning mohiyati haqida tushunish. Tibbiy psixologiya fani asosiy masalalari, vazifalari va qo'llaniladigan tekshirish uslublarini farqlaydi va qo'llash. Psixologiya fani tarixi, asoschilari va ularning qo'shgan hissalar haqida bilish.	15 %	6 ta
2	Ruhiy jarayonlar asoslari	Ruhiy holat, jarayon, ruhiy hodisa haqida tushunchaga ega bo'ladi va ularni farqlaydi. Ongning xususiyatlarini biladi va normal ruhiy holat haqida ma'lumotni bilish. Turli kasalliklar, shikastlashlar, stress kabi fiziologik va patologik holatlarda ongni buzilishi haqida tushunchaga ega bo'lish va farqlash. Ongi buzilgan bemorlar bilan munosabatda bo'lish xususiyatlarini biladi va ularni qo'llash.	20 %	8 ta
3	Bilish sohasi jarayonlari va shaxslararo muloqot asoslari	Bilish sohasi jarayonlarining tarkibiy qismlarini, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat jarayoni, ularning fiziologik asoslari haqida tushunchaga ega, ularni bir-biridan farqlay oladi, sog'lom odamda shu jarayonlarni kechishini hamda turli patologik holatlarda ularni buzilishlarini farqlash. Xotira va idrok jarayonlarining turlarini farqlaydi va sezgi, idrok, xotira, diqqat jarayonlari buzilgan bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularni parvarishini tashkillashtirishni qo'llash. Nutq, tafakkur haqida tushunchaga ega bo'ladi. Nutq va tafakkurning turli buzilishlarini farqlaydi va bemorlar bilan muloqot o'rnatish qoidalarini qo'llash. Emotsiyalar va ularning shaxslararo muloqot o'rnatilishida ahamiyati haqida tushunchalarga ega bo'ladi. Emotsional holatlarni farqlaydi va insonni kayfiyati, emotsiyalarini farqlash. Emotsiyalar buzilishlari turlarini biladi va farqlay oladi; emotsiyalar buzilishlariga uchragan bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatishni qo'llash.	47.5 %	19 ta

4	Shaxs tushunchasi va shaxsni belgilovchi omillar: iroda, temperament, xarakter	Iroda jarayoni bosqich va sifatlarini biladi, inson shaxs sifatida shakllanishida irodaning ahamiyatini tushunish. Iroda faoliyating turli holatlarda buzilishlarini farqlaydi va irodasi buzilgan bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish psixologiyasini qo'llash. «Shaxs» va «odam» tushunchalarini farqlay oladi, Shaxs shakllanishida uning tug'ma (temperament) va hayot davomida shakllantirilgan (xarakter, iroda, atrof-muhit ta'siri) xususiyatlar va omillar ahamiyatini tushunish va farqlash. Shaxs va kasallik muammosini tushunadi, bemor shaxsining kasallikning bemor shaxsiga ta'sirini biladi va samarali muloqot usullarini qo'llash.	5 %	2 ta
5	Tibbiyot sohasida shaxslararo muloqot: etika va deontologiya, samarali muloqot ko'nikmalari	“Etika”, “deontologiya” tushunchalarini, muloqot va uning turlari va darajalarini biladi; etika kategoriyalarini farqlash. Muloqotning umumiy vositalari (yuz ifodasi, ovoz ohangi, proksemika va h.), uning turlari, muloqot davomida qo'llanilishi haqida tushunchaga ega bo'ladi va ularni farqlash. Tibbiy deontologiya asosiy vazifalari; sorrogeniya, yatrogeniya tushunchalari va ularning bemorga ta'siri; bunda o'rta tibbiyot xodimlari asosiy burchlarini bilish.	7.5 %	3 ta
6	Bemorlar bilan samarali muloqot psixologiyasi	Turli toifadagi bemorlar (poliklinika sharoitidagi, kasalxonadagi, jarrohlik, bolalar bo'limlaridagi, akusherlik-ginekologik bemorlar) bilan samarali muloqot o'rnatish, ularga yordam ko'rsatish va yaqinlari bilan muloqot ko'nikmalarini amalda qo'llash.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	22.5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	55 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	22.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Y.M. Fayziyev Umumiy va tibbiy psixologiya “Ilm Ziyo” 2017 yil
2. Y.M. Fayziyev, E. Eshboyev Umumiy va tibbiy psixologiya Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2003 yil
3. G‘oziyev E.G‘. «Psixologiya». Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 2008 yil
4. Yunusjonova Z.S., Mirzaeva S.A., Bositxonova E.I. «Psixologik parvarish» Toshkent, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010 yil